

MENEJER SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

G'affarova Nazira Fayzulla qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet

Psixologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Hayotimizga biznes, tadbirkorlik, marketing, menejment kabi tushunchalar ko`proq kirib borayotgan bir vaqtida oliv o`quv yurtlarining bitiruvchilari yuksak kasb mahoratiga ega bo`lishi bilan bir vaqtida o`z atrofidagi shaxs psixologiyasini yaxshi bilishi hamda ijtimoiy psixologiya asoslari va menejment sohasini yaxshi tushunib olishlari kerak. Menejer tushunchasi tobora hayotimizga kengroq kirib borar ekan, Oliy o`quv yurtlaridagi ta`limning asosiy vazifalaridan biriga talabalarning ijtimoiy psixologiya asoslari bo`lgan boshqaruv psixologiyasi haqida to`laroq tushuncha berish lozim. Negaki ishlab chiqarishni tashkil qilish, unga rahbarlik qilish menejerlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Yuqoridaqilarga asoslanib, shuni ta`kidlash lozimki, har bir yetuk mutaxassis yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga hamda odamlar bilan muloqotga kirishimlilik fazilatiga ega bo`lishi lozim.

Kalit so‘zlar: Menejer, boshqaruv, muloqot, rag`batlantirish, metod, ta`lim, samaradorlik.

KIRISH

Menejer shaxsining psixologik xususiyatlarini tilga olganda avvalo muloqotni tilga olish lozim. Boshqaruv muloqoti nima? Boshqaruv muloqoti -bu odamlarga rahbarlik qilish maqsadidagi muloqot, ya’ni ular faoliyatini ma’lum yo`nalishda o`zgartirish yoki kerakli yo`nalishda tashkil qilishdir. Rahbar boshqaruv muloqotida o`z qo`ll ostidagilar bilan quyidagi munosabatlarda bo`ladi¹.

- 1) buyruq berish, nimanidir tavsiya qilish, maslahat berish;
- 2) bajarilgan ish haqida o`z qo`l ostidagilardan axborot olish;
- 3) qo`l ostidagilarning berilgan topshiriqni bajarishlarini baholash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O`zaro tushunish qonunlari. Siz rahbarlik qilayotgan xizmatchilar o`zlaridan nima talab qilinayotganini tushunmasalar, berilgan topshiriqni ko`ngildagidek bajara olmaydilar. Rahbar topshiriqni qo`l ostidagilarga tushunarli tarzda yetkaza olishi zarur. Ba’zi bir xodimlarga bir og`iz so`z kifoya, ba’zilariga esa uzoq tushuntirishga to`g`ri keladi. Rahbar o`z xodimlari bilan shunday til topishishi kerakki, ular sizni faqat tinglamasinlar, balki eshitsinlar².

Anglash - eshitish organlarini ishga solish, eshitish – o`z diqqatini jalb qilish, miyani ishga solish. Miyani ishga solish - berilgan topshiriqni samarali bajarishda muhim ahamiyatga ega. Xizmatchilar o`z boshliqlarini yaxshi tushunishlarida quyidagi 5 ta shart asosiy omil xisoblanadi:

- kasbning birligi;
- intellekt darajasini hisobga olish;
- axborotning to`laqonliligi;
- bayon etishning mantiqqa muvofiqligi;
- diqqatning jamlanishi.

¹ Э.Гозиев ва бошқалар «Психология муаммолари» 2019 й.

² Ф.Абдурахмонов. Давлетшин «Одамлар Билан кандай мулокотга киришиш ва ёшдашиш керак» 2016 й. Тошкент.

Tushunish - gapiroyotgan odamning so`z ohangiga bog`liq. Agar topshiriq berayotganda qo`l ostidagilarning tushunmayotganligi doimo ta`kidlab turilsa, qo`pol ohangda gapirilsa, bunday rahbarni tushunish qiyin. Bu holda tinglayotgan odamning diqqati topshiriqning mazmuniga emas, balki, gapiroyotgan odamning muomalasiga, o`zini tutishiga jamlanadi.

Har qanday sharoitda ham odamlar o`zlariga yoqqan odamlar bilan muloqotga tez kirishadilar, aksincha, o`zlariga yoqmagan odamlar nuqtai nazardan kelishishlari qiyin. Bu "qonun" insonning o`z hayotidan, tabiatidan uning psixologiyasining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Inson uchun ma`naviy iqlim tabiiy jism iqlimidan ko`ra muhimroqdir. Bu omilni qanday boshqarish, rahbarlik xizmatiga jalb qilish, rahbarlik muloqotida uni qo`llash, yo`l-yo`riqlari haqida ko`proq gap boradi.

Qo`l ostidagi xodimlarni o`ziga moyil qilishning psixologik yo`llari. Xodimlarni o`ziga moyil qilish yo`llari attraksiya deb ataladi.

Biror odam bilan suhbatlashganda sezgi organizmlarimizga (ko`rish, eshitish, hid bilish va h.k.) undan ko`plab xabarlar kelib turadi. Lekin insonlar bu xabarlarning hammasini ham ongli ravishda qabul qila olmaydilar. Masalan faol suhbat jarayonidan so`ng sizdan bir daqiqaga ko`zingizni yumib, suhbatdoshingizning galstugi qanday rangda ekanligini aytib berishni so`rasalar, siz har doim ham to`g`ri javob bera olmaysiz. Demakki, biz ko`rib turib, ko`rmasligimiz mumkin, tinglab turib, eshitmasligimiz mumkin ekan, bu ongimizning qanday ishlashiga bog`liq. Shu bilan birga insonda hissiy ahamiyatga ega bo`lgan xabarlar saqlanib qoladi.

"Ism-sharifi" usuli. Bu usul siz mulokotga kirishayotgan odamning ismi sharifini aytishdan boshlanadi. O`z ismini boshqalardan to`liq eshitish inson uchun hamisha xush yoqadi. Amerikalik psixolog D.Karnegi yozganidek, o`z ismini boshqalardan eshitish inson uchun yoqimli musiqaga o`xshaydi. Bu holatning psixologik mexanizmlari qanday? Bu usulning psixologik mexanizmlari quyidagicha:

1. Insonga berilgan ism hamisha u bilan yonma-yon. Ism shaxs bilan bo`linmas.
2. Agar insonga uning ismini aytmay murojaat qilinsa, bu unga nisbatan faqat xizmat yuzasidan murojaat qilinayotganini bildiradi. Agar insonga ismini aytib murojaat qilsangiz, unga nisbatan e`tibor berilganini bildiradi³.
3. Ismini aytib chaqirish, bu insonning shaxs sifatida tan olishdir.
4. Inson shaxs ekanligini his qilsa, unda albatta qoniqish hissi uyg`onadi.
5. Qoniqish hissiyoti esa doimo ijobiy hissiyotlarga bog`liq.
6. Inson doimo kimgadir yoqishga intiladi, kimdir unga nisbatan yaxshi munosabatda bo`lishini xohlaydi.
7. Agar kimdir bizda ijobiy hissiyot uyg`otsa, u o`ziga tortadi, va u bilan yaqindan muloqot qilishni xohlaymiz.

XULOSA VA MUNOZARA

Rahbar qo`li ostidagi xodimlariga o`z tutgan yo`lini faqat tushuntirishi emas, balki bu bilan hamfikr bo`lib, uning nuqtai nazarini qalban his qilishlariga erishgan bo`lishni xohlasa, u insonlar psixologiyasi haqida bilimlarini doimo boyitib borishi zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Э.Гозиев ва бошқалар «Психология муаммолари» 2019 й.
2. Ф.Абдурахмонов. Давлетшин «Одамлар Билан кандай мулокотга киришиш ва ёшдашиб керак» 2016 й. Тошкент.
3. «Психология изохли лугат» 2018 й.

³ «Моделирование в педагогических ситуациях» 2011 й. Москва.

4. М.Г.Давлетшин таҳрири остида «Ёш психологияси ва педагогик психология» 2014 й. Тошкент.
5. Э.Гозиев «Ёш психологияси» 2014 й.
6. Адизова «Уқитувчиларнинг шахслароро муносабатларини психологик диагностикаси ва коррекцион ишлари».
7. Адизова, Усманова «Психологические трудности в обучении младших школьников» 2015 й. Тошкент.
8. «Моделирование в педагогических ситуациях» 2011 й. Москва.
9. А.С.Сниковская. «Профилактика детских неврозов» 2018 й. Москва.